O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Kattaroq yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalari va ilk kichik yoshdagi bolalar uchun mahsulotlar standarti

(Codex Stan 156-1987, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘z boshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI.

4 Ushbu standart Codex Stan 156-1987 “Standard for follow-up formula for older infants and product for young children” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasman tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ushbu standart ikki bo‘limga bo‘linadi. A bo‘lim katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalarga tegishli bo‘lsa, B bo‘lim esa to‘yintirilgan (ozuqa moddalar qo‘shilgan) kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklar, yoki to‘yintirilgan kichik yoshdagi bolalar uchun mahsulotlar, yoki kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklar, yoki kichik yoshdagi bolalar uchun mahsulotlarga taalluqlidir.

Ushbu standartning qo‘llanilishi milliy/mintaqaviy sog‘liqni saqlash va ratsional ovqatlanish siyosatiga hamda tegishli milliy/mintaqaviy qonunchilikka muvofiq bo‘lishi, shuningdek, milliy/mintaqaviy sharoitdan kelib chiqqan holda Ona suti o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni marketing qilish xalqaro kodeksi (JSST, 1981-yil) tavsiyalarini hisobga olishi lozim.

Ushbu standartni ishlab chiqishda Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST) tegishli ko‘rsatmalari va siyosati hamda Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasi (JSSA) rezolyutsiyalari hisobga olingan bo‘lib, ular mamlakatlar uchun kelgusida qo‘shimcha yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

KATTAROQ YOSHDAGI GO‘DAKLAR UCHUN KEYINGI BOSQICH SUTLI ARALASHMALARI VA ILK KICHIK YOSHDAGI BOLALAR UCHUN MAHSULOTLAR STANDARTI*

СТАНДАРТ НА ПОСЛЕДУЮЩИЕ СМЕСИ ДЛЯ ДЕТЕЙ ПОЗДНЕГО ГРУДНОГО ВОЗРАСТА И ПРОДУКТ ДЛЯ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА*

STANDARD FOR FOLLOW-UP FORMULA FOR OLDER INFANTS AND PRODUCT FOR YOUNG CHILDREN*

Amalga kiritish sanasi 01.08. 2026-y.

A BO‘LIM. KATTA YOSHDAGI GO‘DAKLIK UCHUN KEYINGI BOSQICH SUTLI ARALASHMASI

1 Qo‘llanish doirasi

1.1 Standartning ushbu bo‘limi 2.1-bandda belgilangan, suyuq yoki kukun shaklidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalariga nisbatan tatbiq etiladi.

1.2 Standartning ushbu bo‘limi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalarining tarkibi, sifati, xavfsizligi, yorliqlanishi (tamg’alanishi), shuningdek, tahlil va namuna olish usullariga qo‘yiladigan majburiy talablarni o‘z ichiga oladi.

1.3 Faqatgina ushbu standart bo‘limning qoidalarida belgilangan mezonlarga to‘liq javob beradigan mahsulotlargina katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalari sifatida taqdim etilishi (bozorga chiqarilishi) mumkin.

2 Tavsifi

2.1 Mahsulot tarifi

2.1.1 Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmasi — bosqichma-bosqich turli xildagi qo‘shimcha ovqatlantirish joriy etilayotgan bosqichda, katta yoshdagi go‘daklar ratsionining suyuq qismi sifatida, ona sutining o‘rnini bosuvchi mahsulot sifatida foydalanish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatadi.

2.1.2 Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmasi faqat fizik usullar bilan qayta ishlanadi va mahsulot sotiladigan mamlakatda tashish, saqlash hamda tarqatishning barcha oddiy sharoitlarida buzilish va ifloslanishning (kontaminatsiya) oldini oladigan tarzda qadoqlanadi.

2.2 Boshqa ta‘riflar

2.2.1 "Go‘dak" atamasi 12 oygacha bo‘lgan shaxsni anglatadi.

2.2.2 Katta yoshdagi go‘dak atamasi 6 oylikdan boshlab 12 oylikgacha bo‘lgan shaxsni anglatadi.

3 Asosiy tarkib va sifat ko‘rsatkichlari

3.1 Asosiy tarkib

3.1.1. Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmasi — sigir suti yoki boshqa hayvonlar suti yoxud ularning aralashmasi va/yoki katta yoshdagi go‘daklarni ovqatlantirish uchun xavfsiz hamda yaroqli ekanligi isbotlangan boshqa tarkibiy qismlar

---

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(ingrediyentlar) asosida ishlab chiqariladigan mahsulotdir. Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmasining ozuqaviy xavfsizligi va adekvatligi (mosligi) katta yoshdagi go‘daklarning o‘sishi va rivojlanishini ta‘minlashi ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi lozim.

3.1.2. Ishlab chiqaruvchining yo‘riqnomasiga muvofiq iste‘mol qilishga tayyor holatga keltirilganda, mahsulotning har 100 ml hajmidagi energetik qiymati (quvvati) 60 kkal (251 kDj) dan kam bo‘lmasligi va 70 kkal (293 kDj) dan oshmasligi kerak.

3.1.3. Iste‘mol qilishga tayyor holatga keltirilgan katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmasining har 100 kkal (100 kDj) quvvat ulushida quyida keltirilgan ozuqa moddalari (nutriyentlar) tegishli ravishda belgilangan minimal, maksimal yoki tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajalariga (GULs)[i] muvofiq bo‘lishi kerak.

a) Oqsil[1), 2), 3)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
g/100 kkal	1.8[4), 5)]	3.0	—
g/100 kDj	0.43[4), 5)]	0.72	—

[1)] Ushbu standart maqsadlari uchun iste’molga tayyor yakuniy mahsulot tarkibidagi oqsil miqdorini hisoblash, agar muayyan mahsulot uchun boshqa o‘tish (konversiya) koeffitsiyentidan foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslar taqdim etilmagan bo‘lsa, N×6,25 formulasiga asoslanishi lozim. Ushbu standartda belgilangan oqsil darajalari 6,25 ga teng azot o‘tish koeffitsiyentiga asoslangan. Ma’lumot uchun, 6,38 qiymati Codex’ning sut mahsulotlariga oid boshqa standartlarida azotni oqsilga o‘tkazish uchun mos keladigan maxsus koeffitsiyent sifatida qo‘llaniladi.

[2)] Energetik qiymati teng bo‘lgan holatda, aralashma tarkibidagi har bir almashib bo‘ladigan (muhim) va qisman almashib bo‘ladigan aminokislotalarning mavjud miqdori etalon oqsildagi (Go‘daklar uchun aralashmalar va go‘daklar uchun maxsus tibbiy maqsadlarga mo‘ljallangan aralashmalar standarti [CXS 72-1981] ning I ilovasida belgilangan ona sutidagi) miqdorga kamida teng bo‘lishi lozim; shunga qaramay, hisob-kitob qilish maqsadida tiroz hisoblangan konsentratsiyasi bilan fenilalanin konsentratsiyasi hamda metionin konsentratsiyasi bilan sistein konsentratsiyasi o‘zaro qo‘shib hisoblanishi mumkin.

[3)] Izolyatsiyalangan aminokislotalar katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi sutli aralashmalar tarkibiga faqat go‘daklar uchun uning ozuqaviy qiymatini oshirish maqsadidagina qo‘shilishi mumkin. Almashib bo‘ladigan (muhim) va qisman almashib bo‘ladigan aminokislotalar oqsil sifatini yaxshilash uchun faqat ushbu maqsad uchun zarur bo‘lgan miqdorlarda qo‘shilishi mumkin. Aminokislotalarning faqat va faqat L-shakllaridan foydalanilishi kerak.

[4)] Minimal qiymat sigir va echki suti oqsillariga nisbatan qo‘llaniladi. Sigir yoki echki sutidan boshqa xomashyo oqsillari asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalarga nisbatan boshqa minimal qiymatlar qo‘llanilishi talab etilishi mumkin. Soya oqsili izolyati asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalar uchun esa 2,25g/100 kkal (0,54g/100 kDj) miqdoridagi minimal qiymat qo‘llaniladi.

[5)] Gidrolizlanmagan sut oqsili asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalarda proteinning (oqsilning) 1,6 g/100 kkal va 1,8 g/100 kkal gacha (0,38 g/100 kDj va 0,43 g/100 kDj gacha) oralig‘idagi yanada past minimal oqsil darajasi qabul qilinishi mumkin. Bunday keyingi bosqich sutli aralashmalar hamda gidrolizlangan oqsil asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalarning xavfsizligi va yaroqliligi baholanishi hamda klinik dalillar asosida vakolatli milliy va/yoki mintaqaviy organ tomonidan tekshirilishi lozim.

---

[i] Nazorat ko‘rsatkichlari (GUL_s) ilmiy asoslangan xavf-xatarlarni baholash uchun yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan ozuqa moddalarga (nutrientlarga) nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu darajalar katta yoshdagi go‘daklarning ozuqa moddalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish hamda xavfsiz foydalanishning tasdiqlangan tajribasi asosida chiqarilgan qiymatlardir. Ular tegishli ilmiy yoki texnologik taraqqiyot asosida qayta ko‘rib chiqilishi (tuzatilish kiritilishi) mumkin. GUL_s me’yorlaridan ko‘zlangan maqsad ishlab chiqaruvchilarga yo‘riqnoma taqdim etish hisoblanadi va ular maqsadli (erishilishi lozim bo‘lgan) qiymatlar sifatida talqin qilinmasligi kerak. Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi sutli aralashmalar tarkibidagi ozuqa moddalar miqdori, odatda, GUL_s me’yorlaridan oshmasligi kerak, bundan keyingi sutli aralashmalar tarkibiy qismlarida moddalar miqdorining yuqoriligi yoki o‘zgaruvchanligi yoxud texnologik sabablarga ko‘ra ularning yanada yuqori darajalaridan qochish imkoni bo‘lmagan holatlar mustasno. Agar mahsulotning turi yoki shakli odatda GUL_s me’yorlaridan pastroq miqdorni saqlagan bo‘lsa, ishlab

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5.- 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

chiqaruvchilar GUL$_s$ me’yorlariga yaqinlashish maqsadida ozuqa moddalar miqdorini sun’iy ravishda oshirmasliklari kerak.

b) Yog‘lar

Umumiy yog‘ miqdori[6), 7)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg / 100 kkal	4,4	6,0	-
mg / 100 kDj	1,1	1,4	-

[6)] *Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmalar tarkibida qisman gidrogenlangan yog‘lar va moylardan foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.*

[7)] *Laurin kislotasi va miristin kislotasi yog‘larning tarkibiy qismlari hisoblanadi, biroq ularning umumiy miqdori jami yog‘ kislotalarining 20 foizidan oshmasligi kerak. Transyog‘ kislotalarining miqdori jami yog‘ kislotalarining 3 foizidan oshmasligi lozim. Transyog‘ kislotalari sut yog‘ining endogen (tabiiy) tarkibiy qismlari hisoblanadi. Transyog‘ kislotalarining 3 foizgacha bo‘lgan miqdorda qabul qilinishi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi sutli aralashmalar tarkibida sut yog‘idan foydalanishga imkon berish maqsadini ko‘zlaydi. Eruka kislotasining miqdori jami yog‘ kislotalarining 1 foizidan oshmasligi kerak. Fosfolipidlarning umumiy miqdori 300 mg/100 kkal (72 mg/100 kDj) dan oshmasligi kerak.*

Linol kislotasi

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg / 100 kkal	300	—	1400
mg / 100 kDj	72	—	335

α - Linolen kislotasi

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg / 100 kkal	50	Belgilanmagan (N.S.*)	—
mg / 100 kDj	12	Belgilanmagan (N.S.)	—

*N.S. = (belgilanmagan)

Linol kislotasining α - linolen kislotasiga bo‘lgan nisbati

Minimal (Min.)	Maksimal (Max.)
5:1	15:1

c) Uglevodlar

O‘zlashtiriladigan uglevodlar[8)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
g / 100 kkal	9.0	14.0	—
g / 100 kDj	2.2	3.3	—

[8)] *Sut oqsili va gidrolizlangan oqsil asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi* bosqich *sutli aralashmalarda laktoba va glyukoza polimerlaridan afzal ko‘riladigan uglevodlar sifatida foydalanilishi lozim. Tarkibida tabiiy ravishda glyuten bo‘lmagan, faqat oldindan pishirilgan va/yoki jelatinlangan (kleyisterlangan) kraxmallar qo‘shilishiga yo‘l qo‘yiladi. Saxaroza va/yoki fruktoza uglevod manbai sifatida zarur bo‘lgan holatlardan mustasno ravishda qo‘shilmasligi kerak, bunda ularning umumiy yig‘indisi mavjud uglevodlar miqdorining 20 foizidan oshmasligi kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

d) Vitaminlar

A vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg RE [9)]/100 kkal	75	180	—
µg RE [9)]/100 kDj	18	43	—

[9)] *Retinol ekvivalentlarida (RE) ifodalangan.*

1 mkg RE = 3,33 XB (IU) vitamin A = 1 mkg barcha-trans retinol

Retinol tarkibi oldindan tayyorlangan retinol bilan ta’minlanishi kerak, karotinoidlarning har qanday tarkibi esa A vitamini faolligini hisoblash va deklaratsiyalashga qilish (yorliqda ko‘rsatish) tarkibiga kiritilmasligi kerak.

D vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg [10)]/100 kkal	1.0	3.0	—
µg [10)]/100 kDj	0.24	0.72	—

[10)] *Kalsiferol. 1 µg kalsiferol = 40 IU D vitamini.*

E vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg α- TE[11)]/100 kkal	0.5[12)]	-	5
mg α-TE[11)]/100 kDj	0.12[12)]	0.72	1.2

[11)] *1 mg α-TE (alfa-tokoferol ekvivalenti) = 1 mg d - α - tokoferol.*

[12)] *Vitamin E miqdori har bir gramm ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalari (PUFA) uchun kamida 0,5 mg α-TE ni tashkil etishi kerak. Formula tarkibidagi yog‘ kislotalarining qo‘sh bog‘lar soniga qarab, minimal Vitamin E miqdorini moslashtirish uchun quyidagi ekvivalentlik koeffitsiyentlaridan foydalaniladi*

K vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	4	-	27
µg/100 kDj	0.96	-	6

Tiamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	60	-	300
µg/100 kDj	14	-	72

Riboflavin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	80	-	500
µg/100 kDj	19	-	120

Niatsin[13)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	300	-	1500
µg/100 kDj	72	-	359

[13)] *Niatsin — oldindan tayyorlangan niatsin.*

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B_6 vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	35	-	175
µg/100 kDj	8	-	42

B_{12} vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	0.1	-	1.5
µg/100 kDj	0.02	-	0.36

Pantoten kislota

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	400	-	2000
µg/100 kDj	96	-	478

Folat kislotasi

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	10	-	50
µg/100 kDj	2.4	-	12

C vitamin[14)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	10	-	70[15)]
µg/100 kDj	2.4	-	17[15)]

[14)] *L-askorbin kislotasi hisobida*

[15)] *Ushbu tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi suyuq mahsulotlarning yaroqlilik muddati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yuqori darajadagi yo‘qotishlarni hisobga olgan holda белгиланган; kukunsimon mahsulotlar uchun esa yanada pastroq yuqori darajalar maqsad qilinishi kerak*

Biotin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
µg/100 kkal	1.5	-	10
µg/100 kDj	0.36	-	2.4

e) Minerallar va mikroelementlar

Temir[16)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	1.0	2.0	-
mg/100 kDj	0.24	0.48	-

[16)] *Soya oqsili izolyati asosidagi, yoshi kattaroq go‘daklar uchun mo‘ljallangan keyingi bosqich oziqlantirish formulalarida minimal qiymat 1,5 mg/100 kkal (0,36 mg/100 kDj) va maksimal qiymat 2,5 mg/100 kkal (0,6 mg/100 kDj) ni tashkil etadi.*

Kalsiy

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	50	-	180
mg/100 kDj	12	-	43

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Fosfor

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	25	-	100[17)]
mg/100 kDj	6	-	24[17)]

[17)] *Ushbu GUL (Yo‘riqnomadagi yuqori chegara) soya oqsili izolyati asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi sutli aralashmalarga bo‘lgan yuqori ehtiyojlarni qondirishi lozim.*

Kalsiy/fosfor nisbati

Min.	Max.
1:1	2:1

Magniy

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	5	-	15
mg/100 kDj	1.2	-	3.6

Natriy

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	20	60	-
mg/100 kDj	4.8	14	-

Xlorid

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	50	160	-
mg/100 kDj	12	38	-

Kaliy

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	60	180	-
mg/100 kDj	14	43	-

Marganes

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	1.0	-	100
mg/100 kDj	0.24	-	24

Yod

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	10	-	60
mg/100 kDj	2.4	-	14

Selen

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	2	-	9
mg/100 kDj	0.48	-	2.2

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mis[18)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	35	-	120
mg/100 kDj	8	-	29

[18)] *Suv ta’minoti tizimidagi suv tarkibida mis miqdori yuqori bo‘lgan hududlarda ishlab chiqariladigan katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich davomiy aralashmalarda ushbu miqdor ko‘rsatkichlariga tuzatishlar kiritilishi talab etilishi mumkin*

Rux[19)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	0.5	-	1.5
mg/100 kDj	0.12	-	0.36

[19)] *Soya oqsili izolyati asosida tayyorlangan katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli davomiy aralashmalarga nisbatan 0,75 mg/100 kkal (0,18 mg/100 kDj) minimal qiymat qo‘llaniladi.*

3.2 Qo‘shimcha ingredientlar

3.2.1 3.1.3-bandda keltirilgan tarkibiy talablardan tashqari, kattaroq yoshdagi go‘daklar uchun mo‘ljallangan keyingi ozuqaviy aralashmalarga boshqa ingredientlar yoki moddalar qo‘shilishi mumkin. Bunday hollarda, mazkur ixtiyoriy ingredientlarning xavfsizligi va muayyan ozuqaviy maqsadlarga muvofiqligi, ulardan foydalanish darajasida, umumqabul qilingan ilmiy dalillar bilan baholangan va tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

3.2.2 Ushbu ingredientlar yoki moddalardan birontasi qo‘shilganda, aralashma ko‘zda tutilgan samaraga erishish uchun yetarli miqdorda bo‘lishi kerak, bunda ona sutidagi tegishli miqdor darajalari hisobga olinadi.

3.2.3 Quyidagi moddalar milliy qonunchilikka muvofiq qo‘shilishi mumkin, bunda iste’molga tayyor holatdagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi davomiy aralashma tarkibida ushbu moddalarning 100 kkal (100 kDj) hisobidagi miqdori quyida ko‘rsatilgan darajalardan oshmasligi kerak. Mazkur ro‘yxat to‘liq (tugallangan) hisoblanmaydi, balki vakolatli milliy va/yoki hududiy organlar uchun ushbu moddalar qo‘shilganda ularning tegishli darajalarini belgilash bo‘yicha yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi.

Taurin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	-	12	-
mg/100 kDj	-	2.9	-

Umumiy nukleotidlar

Miqdor darajalari milliy vakolatli organlar tomonidan belgilanishi talab etilishi mumkin

Dokozageksayen kislotasi (DHA)[20)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	-	-	30
mg/100 kDj	-	-	7

[20)] *Agar kattaroq yoshdagi go‘daklar uchun mo‘ljallangan keyingi ozuqaviy aralashmaga dokozaheksaen kislotasi (22:6 n-3) qo‘shilsa, uning miqdori kamida 20 mg/100 kkal (4,8 mg/100 kDj) darajaga yetishi kerak hamda araxidon kislotasi (20:4 n-6) miqdori kamida DHA konsentratsiyasiga teng bo‘lishi lozim. LC-PUFA manbalarida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan eikozapentaen kislotasi (20:5 n-3) miqdori dokozaheksaen kislotasi miqdoridan oshmasligi kerak. Vakolatli milliy va/yoki mintaqaviy organlar o‘z aholisining ozuqaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yuqoridagi shartlardan chetga chiqishlari (tuzatishlar kiritishlari) mumkin.*

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Xolin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	-	-	50
mg/100 kDj	-	-	12

Mio-inozitol

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	-	-	40
mg/100 kDj	-	-	10

L-karnitin

Miqdor darajalari milliy vakolatli organlar tomonidan belgilanadi.

L(+) sut kislotasini hosil qiluvchi kulturalar

L (+) sut kislotasini ishlab chiqaruvchi faqatgina shu turdagi kulturalardan katta yoshdagi go‘daklar uchun nordonlashtirilgan (achitilgan) keyingi davomiy aralashmalarni ishlab chiqarish maqsadida foydalanishga ruxsat etiladi. Nordonlashtirilgan tayyor mahsulot tarkibida hayotchan L (+) sut kislotasini ishlab chiqaruvchi kulturalarning sezilarli miqdori bo‘lmasligi kerak, ularning qoldiq miqdorlari esa sog‘liq uchun hech qanday xavf tug‘dirmasligi lozim.

Muayyan foydali fiziologik samaralarga erishish maqsadida L (+) sut kislotasini ishlab chiqaruvchi kulturalarning aniq shtammlari qo‘shilishining qo‘llanish darajasidagi xavfsizligi va yaroqliligi klinik baholash hamda umumiy qabul qilingan ilmiy dalillar bilan isbotlangan bo‘lishi kerak. Agar ushbu maqsad uchun qo‘shilgan bo‘lsa, iste’molga tayyor holatdagi yakuniy mahsulot ko‘zda tutilgan samaraga erishish uchun yetarli miqdordagi hayotchan kulturalarni o‘z ichiga olishi kerak.

3.3 Tozalik talablari

3.3.1 Umumiy qoidalar

Barcha ingredientlar toza, sifatli, xavfsiz hamda katta yoshdagi go‘daklar tomonidan iste’mol qilinishi uchun yaroqli bo‘lishi kerak. Ular rang, ta’m va hid kabi o‘zlarining odatdagi sifat talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

3.3.2 Vitaminli birikmalar va mineral tuzlar

3.3.2.1 3.1.3-bandning (d) va (e) kichik bandlariga hamda 3.2.1-bandga muvofiq foydalaniladigan vitaminli birikmalar va mineral tuzlar Go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus parhezbop oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llaniladigan ozuqaviy birikmalarning tavsiyaviy ro‘yxatidan (CXG 10-1979)[4] tanlab olinishi lozim.

3.3.2.2 Vitaminli va mineralli ingredientlardan ajralib chiquvchi natriyning miqdori 3.1.3- bandning (e) kichik bandida natriy uchun belgilangan cheklangan me’yor doirasida bo‘lishi kerak.

3.4 Konsistensiya va zarrachalar o‘lchami

Foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomaga muvofiq tayyorlanganda, mahsulotda quyqalar hamda yirik, qo‘pol zarrachalar bo‘lmasligi kerak.

3.5 Maxsus taqiqlar

Mahsulot va uning tarkibiy qismlariga ionlashtiruvchi nurlanish bilan ishlov berilmagan bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

4 Oziq-ovqat qo‘shimchalari

4.1 Oziq-ovqat qo‘shimchalarining umumiy standarti (CXS 192-1995)[1] ning 1 va 2-jadvallariga muvofiq 13.1.2-oziq-ovqat toifasida (Keyingi davomiy aralashmalar) qo‘llaniladigan kislotalilikni boshqaruvchilar (regulyatorlar), antioksidantlar, emulgatorlar, qadoqlash gazlari va quyuqlashtiruvchilar ushbu standartga muvofiq keladigan oziq-ovqat mahsulotlarida foydalanish uchun ruxsat etiladi.

4.2 Xushbo‘ylashtirgichlar

Ushbu mahsulotda har qanday xushbo‘ylashtirgichlardan foydalanish taqiqlanadi.

4.3 Ko‘chib o‘tish tamoyili

Ushbu standartning 2.1-bandida tavsiflangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanilgan xomashyo yoki boshqa ingredientlardan (shu jumladan, oziq-ovqat qo‘shimchalaridan) ko‘chib o‘tishi natijasida yakuniy mahsulot tarkibida faqatgina Oziq-ovqat qo‘shimchalarining umumiy standarti (CXS 192-1995)[1] ning 13.1.2-oziq-ovqat toifasida (Keyingi davomiy aralashmalar) yoki Go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus parhezbop oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llaniladigan ozuqaviy birikmalarning tavsiyaviy ro‘yxatida (CXG 10-1979)[4] ko‘rsatilgan oziq-ovqat qo‘shimchalari quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirdagina mavjud bo‘lishi mumkin:

a) xomashyo yoki boshqa ingredientlar (shu jumladan, oziq-ovqat qo‘shimchalari) tarkibidagi oziq-ovqat qo‘shimchasining miqdori belgilangan eng yuqori ruxsat etilgan me’yordan oshmasligi; va

b) oziq-ovqat qo‘shimchasi ko‘chib o‘tgan mahsulot tarkibidagi ushbu qo‘shimchaning miqdori Oziq-ovqat qo‘shimchalarining umumiy standarti (CXS 192-1995)[1] muqaddimasidagi ko‘chib o‘tish bo‘yicha qoidalarga muvofiq, zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) sharoitida xomashyo yoki ingredientlardan foydalanish natijasida kiritilishi mumkin bo‘lgan miqdordan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5 Ifloslantiruvchi moddalar (kontaminantlar)

Ushbu standart qamrab oladigan mahsulotlar Oziq-ovqat va ozuqalardagi ifloslantiruvchi moddalar hamda toksinlarning umumiy standarti (CXS 193-1995)5 da belgilangan eng yuqori ruxsat etilgan me’yorlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Ushbu standart qamrab oladigan mahsulotlar Kodeks Alimentarius Komissiyasi (Codex Alimentarius Commission) tomonidan belgilangan pestitsidlarning qoldiqlari bo‘yicha eng yuqori cheklangan me’yorlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

6 Gigiena

6.1 Ushbu standart qoidalari qamrab oladigan mahsulotlarni Oziq-ovqat gigienasining umumiy prinsiplari (CXC 1-1969)[6] ning tegishli bo‘limlariga hamda Kodeksning boshqa tegishli matnlariga, chunonchi Go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan kukunsimon aralashmalar uchun gigiena amaliyoti kodeksi (CXC 66-2008)[7] ga muvofiq tayyorlash va ular bilan ishlash tavsiya etiladi. Sanoat usulida sterillangan suyuq aralashmalar holatida esa, zaruratga ko‘ra, Aseptik usulda qayta ishlangan va qadoqlangan kam kislotali oziq-ovqat mahsulotlari uchun gigiena amaliyoti kodeksi (CXC 40-1993)[8] hamda Kam kislotali va nordonlashtirilgan kam kislotali konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari uchun gigiena amaliyoti kodeksi (CXC 23-1979)[9] ning tegishli bo‘limlari ham inobatga olinishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

6.2 Mahsulotlar oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan mikrobiologik mezonlarni belgilash va qo‘llash prinsiplari hamda uslubiy ko‘rsatmalari (CXC 21-1997)[10] ga muvofiq belgilangan har qanday mikrobiologik mezonlarga muvofiq bo‘lishi lozim.

7 Idishlarning to‘ldirilishi

Iste’molga tayyor holatdagi mahsulotlar uchun idishlarning to‘ldirilishi quyidagi miqdordan kam bo‘lmasligi lozim:

(i) og‘irligi 150 g (5 oz) dan kam bo‘lgan mahsulotlar uchun idishning suv sig‘imiga nisbatan 80 foiz (h/h); (ii) og‘irligi 150 g dan 250 g gacha (5 oz-9 oz) bo‘lgan mahsulotlar uchun idishning suv sig‘imiga nisbatan 85 foiz (h/h); va (iii) og‘irligi 250 g (9 oz) dan ortiq bo‘lgan mahsulotlar uchun idishning suv sig‘imiga nisbatan 90 foizdan (h/h) kam bo‘lmagan miqdorda.

Idishning suv sig‘imi deganda, to‘liq to‘ldirilgan zich yopilgan (germetik) idish ichiga sig‘adigan 20 °C haroratdagi distillangan suvning hajmi tushuniladi.

8 Tamg’alash

Oldindan qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg’alash bo‘yicha umumiy standart (CXS 1-1985)[11], Ozuqaviy qiymatni tamg’alash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar (CXG 2-1985)[12] hamda Ozuqaviy va davolovchi-profilaktik (sog‘lomlashtirish) xususiyatlar to‘g‘risidagi da’volarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar (CXG 23-1997)[13] talablari katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich aralashmalarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu talablar, tegishli Kodeks standartlarida yoki milliy qonunchilikda maxsus ko‘zda tutilgan hollardan tashqari, go‘daklar uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy va davolovchi-profilaktik xususiyatlari to‘g‘risidagi da’volardan foydalanishni taqiqlashni o‘z ichiga oladi.

8.1 Mahsulot nomi

8.1.1 Yorliq matni va mahsulotga ilova qilinadigan barcha boshqa ma’lumotlar tegishli tilda (tillarda) yozilishi kerak.

8.1.2 2.1-kichik bandda belgilangan mahsulotning nomi “Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi davomiy aralashma” deb yuritilishi yoki milliy yoki mintaqaviy amaliyotga muvofiq, mahsulotning haqiqiy xususiyatini ko‘rsatuvchi har qanday boshqa tegishli nom bilan ifodalanishi kerak.

8.1.3 Mahsulot tarkibidagi oqsil manbalari yorliqda aniq ko‘rsatilishi kerak.

a) Agar [hayvon nomi] suti yagona oqsil manbai* bo‘lsa, mahsulot quyidagicha tamg’a qo’yilishi mumkin: [hayvon nomi] suti oqsili asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich sutli aralashmasi».

b) *Agar [o‘simlik nomi] oqsilning yagona manbai* bo‘lsa, mahsulot “Kattaroq yoshdagi go‘daklar uchun [o‘simlik nomi] oqsili asosidagi keyingi ozuqaviy aralashma” deb tamg’alanishi mumkin.

c) Agar oqsil manbalari *[hayvon nomi]* suti va *[o‘simlik nomi]* bo‘lsa*, mahsulot “*[hayvon nomi]* suti oqsili va *[o‘simlik nomi]* oqsili asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich davomiy aralashma” yoki “*[o‘simlik nomi]* oqsili va *[hayvon nomi]* suti oqsili asosidagi katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi bosqich davomiy aralashma” deb tamg’alanishi mumkin.

8.1.4 Tarkibida sut ham, sutdan ajratilgan har qanday mahsulotlar (hosilalar) ham bo‘lmagan mahsulot yorlig‘ida “tarkibida sut yoki sut mahsulotlari mavjud emas” degan yozuv yoki shunga teng qiymatli iborat bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

8.2 Ingredientlar ro‘yxati

8.2.1 Yorliqda ingredientlarning to‘liq ro‘yxati ularning miqdori kamayishi tartibida ko‘rsatilishi kerak, bundan qo‘shilgan vitaminlar va minerallar mustasno — ushbu ingredientlar vitaminlar va minerallar uchun alohida guruhlar sifatida guruhlanishi mumkin. Mazkur guruhlar ichida vitaminlar va minerallarni ularning miqdori kamayishi tartibida ko‘rsatish talab etilmaydi.

8.2.2 Kelib chiqishi hayvonotga yoki o‘simlikka mansub bo‘lgan ingredientlar hamda oziq-ovqat qo‘shimchalari uchun ularning aniq (maxsus) nomi ko‘rsatilishi kerak. Bundan tashqari, yorliqda oziq-ovqat qo‘shimchalarining tegishli funksional sinflari ko‘rsatilishi lozim. Oziq-ovqat qo‘shimchalarining INS (Xalqaro raqamlash tizimi) raqami ham ixtiyoriy ravishda ko‘rsatilishi mumkin.

8.3 Ozuqaviy qiymatni ko‘rsatish

Kattaroq yoshdagi go‘daklar uchun mo‘ljallangan keyingi bosqich sutli aralashmalarning ozuqaviy qiymati to‘g‘risidagi deklaratsiya quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi va ularni quyidagi tartibda ko‘rsatish lozim:

a) sotilayotgan holatdagi mahsulotning har 100 g yoki har 100 ml hisobiga, shuningdek, yorliqdagi ko‘rsatmalarga muvofiq tayyorlangan, iste’molga tayyor mahsulotning har 100 ml hisobiga nisbatan kilokaloriyalarda (kkal) va/yoki kilojoullarda (kDj) ifodalangan energetik qiymat (energiya miqdori) hamda grammlarda ifodalangan oqsil, uglevod va yog‘ miqdori;

b) sotilayotgan holatdagi mahsulotning har 100 g yoki har 100 ml hisobiga, shuningdek, yorliqdagi yo‘riqnomaga muvofiq tayyorlangan, iste’molga tayyor mahsulotning har 100 ml hisobiga nisbatan A bo‘limining 3.1.3-bandida ko‘rsatilgan har bir vitamin va mineralning hamda A bo‘limining 3.2-bandida ko‘rsatilgan har qanday boshqa ingredientning umumiy miqdori; va

c) qo‘shimcha ravishda, (a) va (b) bandlarida ko‘rsatilgan ozuqaviy moddalar miqdorini mahsulotning har 100 kkal yoki har 100 kDj energetik qiymati hisobiga ham deklaratsiya qilishga (ko‘rsatishga) ruxsat etiladi.

* Aniqlik kiritish uchun: oqsil sifatini yaxshilash maqsadida alohida aminokislotalarning qo‘shilishi yuqorida ko‘rsatilgan tamg’alash variantlaridan foydalanishni istisno etmaydi.

8.4 Saqlash muddatini belgilash va saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar

8.4.1 Saqlash muddatini belgilash va saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar CXS 1-1985[11] ning 4.7-bandi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

8.4.2 Imkon qadar (texnik jihatdan amalga oshirish mumkin bo‘lgan hollarda), saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar yararoqlilik muddati ko‘rsatilgan joyning bevosita yaqinida joylashtirilishi kerak.

8.5 Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

8.5.1 Suyuq holatdagi, iste’molga tayyor mahsulotlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanilishi lozim. Konsentrlangan suyuq mahsulotlar va kukunsimon mahsulotlar, foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmaga muvofiq, bolani ovqatlantirishdan oldin ichishga yaroqli (iste’molbop) bo‘lgan xavfsiz suvda yoki oldindan qaynatish orqali xavfsiz holatga keltirilgan suvda tayyorlanishi kerak. Mahsulotni tayyorlash va u bilan ishlash bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar gigiyena qoidalariga (good hygienic practice) muvofiq bo‘lishi lozim.

8.5.2 Yorliqda mahsulotni to‘g‘ri tayyorlash va undan foydalanish, shu jumladan, uni tayyorlagandan keyin saqlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar, ya’ni bolani emizishdan (ovqatlantirishdan) keyin ortib qolgan mahsulot tashlab yuborilishi (yo‘q qilinishi) lozimligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

8.5.3 Yorliqda mahsulotni tayyorlash usulini aniq tushuntiruvchi yaqqol grafik ko‘rsatmalar (tasvirlar/piktogrammalar) bo‘lishi kerak.

8.5.4 Yo‘riqnomada mahsulotni noto‘g‘ri tayyorlash, saqlash va undan foydalanishning sog‘liq uchun xavfli oqibatlari (zarari) to‘g‘risidagi ogohlantirish bo‘lishi lozim.

8.5.5 Yorliqda idish (qadoq) ochilgandan keyin mahsulotni saqlash tartibiga oid tegishli ko‘rsatmalar bo‘lishi lozim.

8.5.6 Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi davomiy aralashma yorlig‘ida mahsulotni bolaning 6 oylik yoshidan oldin berish (ratsionga kiritish) mumkin emasligi, u yagona oziqlanish manbasi sifatida qo‘llanilmasligi hamda katta yoshdagi go‘daklar ushbu mahsulotga qo‘shimcha ravishda qo‘shimcha ovqatlar (ko‘makchi oziq-ovqatlar) olishi kerakligi to‘g‘risidagi ko‘rsatma (ogohlantirish matni) bo‘lishi lozim.

8.6 Qo‘shimcha markalash talablari

8.6.1 Yorliqlar ona suti bilan boqishni (ko‘krak suti berishni) rag‘batlantirishga to‘sqinlik qilmasligi lozim. Har bir idish (qadoq) yorlig‘ida quyidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan aniq, yaqqol ko‘rinadigan va oson o‘qiladigan matn (murojaat) bo‘lishi kerak:

a) “Muhim eslatma” degan so‘zlar yoki shunga teng qiymatli ibora;

b) “Ona suti bolangiz uchun eng yaxshi oziqdir” degan ko‘rsatma yoki ko‘krak suti bilan boqishning yoki ona sutining afzalligini (ustunligini) ifodalovchi shunga o‘xshash bayonot;

c) ushbu mahsulotdan faqat tibbiyot xodimining undan foydalanish zarurati va to‘g‘ri foydalanish usuli bo‘yicha bergan tavsiyasiga (maslahatiga) binoan foydalanish kerakligi to‘g‘risidagi ko‘rsatma;

d) “Ushbu mahsulotdan foydalanish ko‘krak suti bilan boqishni to‘xtatishga olib kelmasligi lozim” degan ko‘rsatma.

8.6.2 Yorliqda go‘daklar, kichik yoshdagi bolalar va ayollarning tasvirlari (rasmlari), shuningdek, quyidagi holatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa tasvirlar, matnlar yoki ifodalar bo‘lmasligi kerak:

8.6.2.1 katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi davomiy aralashmalardan foydalanishni bo‘rttirib ko‘rsatish (ideallashtirish);

8.6.2.2 mahsulotdan 6 oylikgacha bo‘lgan go‘daklar uchun foydalanishni nazarda tutish (shu jumladan, bolaning rivojlanish bosqichlari va davrlariga havola qilish);

8.6.2.3 butilkadan emizishni (shisha idish orqali ovqatlantirishni) tavsiya etish yoki targ‘ib qilish;

8.6.2.4 ko‘krak suti bilan boqishning ahamiyatini pasaytirish yoki unga to‘sqinlik qilish, yoxud ona suti bilan taqqoslashni yuzaga keltirish, mahsulotning ona sutiga o‘xshash, unga teng qiymatli yoki undan ustun ekanligini ko‘rsatish;

8.6.2.5 Mahsulot tamg’asida professional yoki boshqa tashkilotlar tomonidan ma’qullanganligini bildiruvchi yoxud shunday ma’qullash sifatida talqin qilinishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi, agar ushbu ma’lumotlar tegishli milliy yoki hududiy tartibga soluvchi organlar tomonidan maxsus tasdiqlanmagan bo‘lsa.

8.6.3 “Gumanizatsiyalashgan” (inson sutiga moslashtirilgan) “maternalizatsiyalashgan” (ona sutiga yaqinlashtirilgan) yoki shunga o‘xshash boshqa atamalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi (taqiqlanadi).

8.6.4 Katta yoshdagi go‘daklar uchun mo‘ljallangan o‘tish bosqichi formulalari (follow-up formula) iste’molchilarda chaqaloqlar uchun mo‘ljallangan formulalar, oziq moddalar qo‘shilgan yosh bolalar uchun ichimliklar yoki mahsulotlar, shuningdek, go‘daklar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi formulalar bilan chalkashlik kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaydigan tarzda aniq tamg’alanishi lozim. Bu, ayniqsa, mahsulotdagi matn, tasvirlar va ranglarga nisbatan tatbiq etiladi hamda iste’molchilarga ushbu mahsulotlarni bir-biridan yaqqol ajratib olish imkonini berishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

8.6.5 Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi davomiy aralashmalarni tamg’alash go‘daklar uchun mo‘ljallangan aralashmalarga (boshlang‘ich aralashmalarga), tarkibida to‘yingan ozuqaviy moddalari bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklarga yoki tarkibida to‘yingan ozuqaviy moddalari bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar uchun mahsulotlarga, yoxud kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklarga yoki kichik yoshdagi bolalar uchun mahsulotlarga, shuningdek, go‘daklar uchun mo‘ljallangan maxsus tibbiy maqsadlardagi aralashmalarga havola qilinmasligi, shu jumladan, ushbu mahsulotlarning raqamlari, matnlari, bayonotlari yoki tasvirlaridan foydalanilmasligi lozim.

9 Tahlil va namuna olish usullari

Ushbu standart talablariga muvofiqlikni tekshirish (nazorat qilish) uchun Tahlil va namuna olish bo‘yicha tavsiya etilgan usullar (CXS 234-1999) [14] standartining mazkur standart qoidalariga daxldor bo‘lgan qismidagi tahlil usullaridan foydalanilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B BO‘LIM. QO‘SHIMCHA OZUQAVIY MODDALAR BILAN BOYITILGAN KICHIK YOSHDAGI BOLALAR UCHUN ICHIMLIKLAR YOKI MAHSULOTLAR, YOXUD KICHIK YOSHDAGI BOLALAR UCHUN ICHIMLIKLAR YOKI MAHSULOTLAR

1 Qo‘llanilish sohasi

1.1 Standartning ushbu bo‘limi 2.1-bandda belgilangan, suyuq yoki kukun shakldagi mahsulotga nisbatan qo‘llaniladi.

1.2 Standartning ushbu bo‘limi 2.1-bandda belgilangan mahsulotning tarkibi, sifati, xavfsizligi, tamg’alanishi, tahlil va namuna olish usullariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi.

1.3 Faqat standartning ushbu bo‘limi qoidalarida belgilangan mezonlarga muvofiq keladigan mahsulotlargina 2.1-bandda ko‘rsatilgan mahsulot sifatida taqdim etilishi kerak.

2 Tavsif

2.1 Mahsulot ta’rifi

2.1.1 Qo‘shimcha ozuqaviy moddalar bilan boyitilgan kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklar yoki mahsulotlar, yoxud kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklar yoki mahsulotlar deganda, kichik yoshdagi bolalar ratsionining suyuq qismi sifatida foydalanish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot tushuniladi.

2.1.2 Qo‘shimcha ozuqaviy moddalar bilan boyitilgan kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklar yoki mahsulotlar, yoxud kichik yoshdagi bolalar uchun ichimliklar yoki mahsulotlar faqat fizik usullar bilan qayta ishlangan va mahsulot sotiladigan mamlakatda tashish, saqlash hamda muomalaga kiritishning barcha odatiy sharoitlarida buzilish va ifloslanishning oldini oladigan tarzda qadoqlangan bo‘lishi lozim.

2.2 Boshqa ta’riflar

2.2.1 Kichik yoshdagi bolalar atamasi deganda, 12 oydan ortiq yoshdan uch yoshgacha (36 oygacha) bo‘lgan shaxslar tushuniladi.

3 Asosiy tarkibi va sifat ko‘rsatkichlari (faktorlari)

3.1 Asosiy tarkibi

3.1.1 2.1-bandda ta’riflangan mahsulot sigir yoki boshqa hayvonlar suti yoxud ularning aralashmasi va/yoki kichik yoshdagi bolalarni oziqlantirish uchun xavfsiz va mos ekanligi tasdiqlangan boshqa tarkibiy qismlar asosida tayyorlanadi. 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotning ozuqaviy xavfsizligi va yetarliligi kichik yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishini ta’minlash uchun ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi kerak.

3.1.2 Ishlab chiqaruvchining qo’llanmasiga muvofiq iste’molga tayyorlangan mahsulotning har 100 ml hajmida energiya qiymati 60 kkal (251 kJ) dan kam bo‘lmagan va 70 kkal (293 kJ) dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda bo‘lishi kerak. Milliy va/yoki mintaqaviy vakolatli organlar mahalliy aholining ozuqaviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, milliy/mintaqaviy parhez qo’llanmalariga muvofiq minimal energiya miqdoridan chetga chiqishi (o‘zgartirishi) mumkin.

3.1.3 2.1-bandda ta’riflangan va iste’molga tayyorlangan mahsulotning har 100 kkal (100 kJ) hajmida tegishli ravishda quyidagi minimal va maksimal miqdordagi yoki GUL_S (Yuqori tavsiyaviy darajalar)[ii] ko‘rsatilgan ozuqaviy moddalar bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

a) Oqsil[1), 2)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
g/100 kkal	1,8	-	-
g/100 kDj	0,43	-	-

[1)] *Ushbu standart maqsadlari uchun iste’molga tayyor bo‘lgan yakuniy mahsulotdagi oqsil miqdorini hisoblash, agar muayyan mahsulot uchun boshqa konversiya koeffitsiyentidan foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslash mavjud bo‘lmasa, N × 6.25 formulasi asosida amalga oshirilishi kerak. Ushbu standartda belgilangan oqsil darajalari 6.25 azot konversiya koeffitsiyentiga asoslangan. Ma’lumot uchun: 6.38 qiymati boshqa Codex sut mahsulotлapu standartlarida azotni oqsilga aylantirish uchun mos keladigan maxsus koeffitsiyent sifatida qo‘llaniladi.*

[2)] *Protein Digestibility Corrected Amino Acid Score (PDCAAS) oqsil sifatini aniqlash uchun afzal ko‘riladigan usul hisoblanadi. Biroq, Protein Efficiency Ratio (PER) usulidan foydalanishda davom etish mumkin. Agar kelajakda FAO tomonidan e’tirof etilsa, Digestible Indispensable Amino Acid Score (DIAAS) usuli ham ko‘rib chiqilishi mumkin. PDCAAS metodologiyasi yordamida aniqlanganda, tegishli hazm bo‘lish ko‘rsatkichlari va mos yozuvdagi aminokislotalar namunasi (qarang: FAO Ekspert ishchi guruhi hisoboti: "Kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan keyingi bosqich aralashmalari va foydalanishga tayyor terapevtik oziq-ovqat mahsulotlarida oqsil sifatini baholash", 5-jadval) asosida, PDCAAS 0.9 dan kam bo‘lmasligi kerak. Pastroq ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan formulalarda kerakli qiymatga erishish uchun oqsil sifati va/yoki miqdori o‘zgartirilishi lozim. PDCAAS ni hisoblash bo‘yicha batafsil ma’lumotlar FAO Ekspert ishchi guruhining yuqorida qayd etilgan hisobotida keltirilgan.*

PER metodologiyasi yordamida aniqlanganda, oqsil sifati kazein sifatining 85 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

b) Yog‘lar[3)]

Umumiy yog‘ miqdori

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
g/100 kkal	3,5	-	-
g/100 kDj	0,84	-	-

[3)] *2.1-bandda ta’riflangan mahsulotda qisman bo’lsa ham gidrogenlangan yog‘lar va moylardan foydalanilmasligi kerak.*

α-linolen kislotasi

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	50	-	-
mg/100 kDj	12	-	-

Linol kislotasi

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs)
mg/100 kkal	300	-	-
mg/100 kDj	72	-	-

---

i Ba’zi mamlakatlarda ushbu mahsulotlar ona suti o‘rnini bosuvchi mahsulotlar sifatida tartibga solinadi..

ii Yuqori tavsiyaviy darajalar (GULs) ilmiy asoslangan xavflarni baholash uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan ozuqaviy moddalar uchun qo‘llanadi. Ushbu darajalar kichik yoshdagi bolalarning ozuqaviy ehtiyojlarini *qondirish hamda ulardan xavfsiz foydalanishning o‘rnatilgan tarixi asosida belgilangan qiymatlardir. Ular tegishli ilmiy yoki texnologik taraqqiyotga asoslanib o‘zgartirilishi mumkin. GULs ning maqsadi ishlab chiqaruvchilarga qo’llanma berishdan iborat bo‘lib, ular maqsadli ko‘rsatkichlar sifatida talqin qilinmasligi kerak. 2.1-bandda ta’riflangan mahsulot tarkibidagi ozuqaviy moddalar miqdori, odatda, GULs dan oshmasligi kerak, faqat mahsulot tarkibiy qismlaridagi yuqori yoki o‘zgaruvchan miqdorlar yoki texnologik sabablar tufayli yuqoriroq darajalardan qochishning imkoni bo‘lmagan hollar bundan mustasno. Agar mahsulot turi yoki shakli odatda GULs dan pastroq darajalarni o‘z ichiga olsa, ishlab chiqaruvchilar ozuqaviy moddalar darajasini GULs ga yaqinlashtirish uchun ularni oshirmasliklari kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI RASMIY NASHRI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

c) Uglevodlar

O‘zlashtiriladigan uglevodlar[4), 5)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal[6)]	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
g/100 kkal	-	12.5	-
g/100 kDj	-	3.0	-

[4)] Sut oqsili asosida tayyorlangan 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotda laktoza afzal ko‘riladigan uglevod bo‘lishi kerak. Sut oqsili asosida bo‘lmagan mahsulotlar uchun shirin ta’mga ta’sir qilmaydigan uglevod manbalari afzal ko‘rilishi va hech qanday holatda laktozadan shirinroq bo‘lmasligi lozim.

[5)] Laktozadan tashqari mono- va disaxaridlar miqdori 2,5 g/100 kkal (0,60 g/100 kDj) dan oshmasligi kerak. Milliy va/yoki mintaqaviy vakolatli organlar ushbu darajani 1,25 g/100 kkal (0,30 g/100 kDj) gacha cheklashi mumkin. Saxaroza va/yoki fruktoza qo‘shilmasligi lozim.

[6)] 2.1-bandda ta’riflangan, oqsil darajasi 3,0 g/100 kkal dan past bo‘lgan mahsulotlar uchun vakolatli milliy va/yoki mintaqaviy organlar tomonidan o‘zlashtiriladigan uglevodlarning maksimal darajasini 14 g/100 kkal (3,3 g/100 kDj) gacha bo‘lishiga ruxsat berilishi mumkin.

d) Vitaminlar

A Vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
µg RE[7)]/100 kkal	60	180	-
µg RE [7)]/100 kDj	14	43	-

[7)] RE (retinol ekvivalenti) da ifodalangan.

1 mkg RE = 3,33 ХБ (xalqaro birlik) vitamin A = 1 mkg all-trans retinol. Retinol miqdori oldindan shakllangan (preformed) retinol hisobiga ta’minlanishi kerak, bunda karotinoidlar miqdori vitamin A faolligini hisoblash va deklaratsiyalashga (bayon etishga) kiritilmasligi lozim.

D Vitamin[8)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
µg [9)]/100 kkal	1,5	4,5	-
µg [9)]/100 kDj	0,36	1,1	-

[8)] Vakolatli milliy va/yoki mintaqaviy organlar o‘z aholisining ozuqaviy ehtiyojlariga mos ravishda tegishli shartlardan chetga chiqishi mumkin.

[9)] Kalsiferol. 1 mkg kalsiferol = 40 ХБ vitamin D.

Riboflavin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
µg/100 kkal	80	-	650
µg/100 kDj	19	-	155

B_{12} Vitamin

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
µg/100 kkal	0,1	-	2,0
µg/100 kDj	0,02	-	0,48

C Vitamin[10)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
mg/100 kkal	10	-	70
mg/100 kDj	2,4	-	17

[10)] L-askorbin kislotasi hisobida ifodalangan.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

e) Minerallar va mikroelementlar

Temir [11)]

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
mg/100 kkal	1,0	3,0	-
mg/100 kDj	0,24	0,72	-

[11)] *Soya oqsili izolyati asosida tayyorlangan 2.1-bandda ta’riflangan mahsulot uchun 1,5 mg/100 kcal (0,36 mg/100 kJ) minimal qiymat qo‘llaniladi.*

Kalsiy

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
mg/100 kkal	90	-	280
mg/100 kDj	22	-	67

Rux

O‘lchov birligi	Minimal	Maksimal	Tavsiya etilgan yuqori xavfsiz chegara darajasi
mg/100 kcal	0,5	-	1,5
mg/100 kJ	0,12	-	0,36

2.1-bandda ta’riflangan mahsulotga natriy xlorid qo‘shilmasligi kerak.

3.1.4 Milliy va/yoki mintaqaviy vakolatli organlar 3.1.3-band, B-qismida sanab o‘tilgan muhim ozuqaviy moddalar uchun majburiy talablarni qo‘shishi mumkin. Har qanday qo‘shimcha majburiy ozuqaviy moddalar 3.1.3-band, A-qismidagi yosh go‘daklar uchun mo‘ljallangan keyingi bosqich aralashmalarining muhim tarkibidan tanlab olinishi kerak. Agar qo‘shimcha majburiy ozuqaviy moddalar qo‘shilsa, ularning miqdori yosh go‘daklar uchun mo‘ljallangan keyingi bosqich aralashmalarining (3.1.3-band, A-qism) ozuqaviy tarkibiga asoslanishi lozim; bunda ona suti tarkibi hisobga olinishi va sigir sutidagi ozuqaviy moddalarning tabiiy darajalari inobatga olinishi kerak.

3.1.5 Barcha ozuqaviy moddalar darajalari, agar mahalliy aholining ozuqaviy ehtiyojlari va ilmiy asoslash bunday chetga chiqishni talab qilsa, o‘zgartirilishi mumkin.

3.2 Ixtiyoriy ingredientlar

3.2.1 3-bandda keltirilgan tarkibiy talablardan tashqari, 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotga boshqa ingredientlar yoki moddalar qo‘shilishi mumkin, bunda ushbu ixtiyoriy ingredientning muayyan ozuqaviy maqsadlar uchun xavfsizligi va muvofiqligi, foydalanish darajasida, vakolatli milliy va/yoki mintaqaviy organlar tomonidan baholanishi hamda umumiy qabul qilingan ilmiy dalillar bilan tasdiqlanishi kerak. 3.2.3-band, A-qismida sanab o‘tilgan ixtiyoriy ingredientlardan foydalanishga ham ruxsat beriladi.

3.2.2 Ushbu ingredientlar yoki moddalardan har biri qo‘shilganda, 2.1-bandda ta’riflangan mahsulot ko‘zlangan samaraning erishilishini ta’minlash uchun yetarli miqdorda bo‘lishi kerak.

3.2.3 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotga qo‘shimcha ozuqaviy moddalar ham qo‘shilishi mumkin, agar ushbu moddalar kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan keyingi bosqich aralashmalarining muhim tarkibidan tanlab olinsa hamda ularning miqdori kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan keyingi bosqich aralashmalari (3.1.3-band, A-qism) uchun belgilangan minimal, maksimal va GUL darajalariga muvofiq bo‘lsa va sigir sutidagi ozuqaviy moddalarning tabiiy darajalari inobatga olinsa; yoxud mahalliy aholining ozuqaviy ehtiyojlari va ilmiy asoslash bundan chetga chiqishni talab qilsa, vakolatli milliy va/yoki mintaqaviy organlar tomonidan o‘zgartirilishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.2.4 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotga shirin ta’m berish ёки uni kuchaytirish maqsadida ingredientlar qo‘shilmasligi kerak.

3.3 Tozalik talablari

3.3.1 Umumiy qoidalar

Barcha ingredientlar toza, sifatli, xavfsiz va yosh bolalar tomonidan iste’mol qilish uchun mos bo‘lishi kerak. Ular o‘zining odatiy sifat talablariga, masalan, rang, ta’m va hid ko‘rsatkichlariga muvofiq bo‘lishi lozim.

3.3.2 Vitaminli birikmalar va mineral tuzlar

3.1.3 (d) va (e) hamda 3.2.1-bandlarga muvofiq foydalaniladigan vitamin birikmalari va mineral tuzlar “Go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus parhez oziq-ovqat mahsulotlarida foydalanish uchun ozuqaviy moddalar birikmalarining maslahat ro‘yxatlari” (CXG 10-1979) [4] asosida tanlab olinishi kerak.

3.4 Quyuqligi (konsistensiyasi) va zarrachalar o‘lchami

Foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomaga muvofiq tayyorlanganda, mahsulotda quyqalar (qumoqlar) hamda yirik, dag‘al zarrachalar bo‘lmasligi kerak.

3.5 Maxsus taqiqlar

Mahsulot va uning tarkibiy qismlariga ionlashtiruvchi nurlanish bilan ishlov berilmasligi kerak.

4 Oziq-ovqat qo‘shimchalari

4.1 Oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘yicha umumiy standartning (CXS 192-1995) [1]- va 2-jadvallariga muvofiq, 13.1.2-oziq-ovqat toifasida (Yosh go‘daklar uchun keyingi bosqich aralashmalari) qo‘llaniladigan kislotalikni rostlagichlar, antioksidantlar, emulgatorlar, qadoqlash gazlari va quyuqlashtirgichlardan ushbu standartga muvofiq bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarida foydalanishga ruxsat etiladi.

4.2 Ta’m va hid beruvchi moddalar (aromatizatorlar)[12)]

Ta’m va hid beruvchi moddaning nomi	Maksimal qo‘llanish darajasi (miqdori)
Tabiiy meva ekstraktlari	GMP
Vanil ekstrakti	GMP
Etilvanilin	50 mg/kg
Vanilin	50 mg/kg

Ushbu standart bilan qamrab olingan mahsulotlarda foydalaniladigan xushbo‘ylashtirgichlar Xushbo‘ylashtirgichlardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanmaga (CXG 66-2008) [15] muvofiq bo‘lishi kerak.

[12)] Milliy va/yoki mintaqaviy vakolatli organlar sanab o‘tilgan xushbo‘ylashtirgichlardan foydalanishni cheklashi yoki taqiqlashi mumkin.

4.3 O‘tish tamoyili

Faqat Oziq-ovqat qo’shimchalari bo‘yicha umumiy standartning (CXS 192-1995) [1] 13.1.2-oziq-ovqat toifasiga (Yosh go‘daklar uchun keyingi bosqich aralashmalari) kiritilgan yoki Go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus parhez oziq-ovqat mahsulotlarida foydalanish uchun ozuqaviy moddalar birikmalarining maslahat ro‘yxatlarida (CXG 10-1979)[4] keltirilgan oziq-ovqat qo‘shimchalari ushbu bo‘limning 2.1-bandida ta’riflangan oziq-ovqat mahsulotlarida xomashyodan o‘tish (carry-over) natijasida mavjud bo‘lishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

a) Xom ashyo yoki boshqa ingredientlardagi (shu jumladan oziq-ovqat qo‘shimchalaridagi) oziq-ovqat qo‘shimchasining miqdori belgilangan maksimal darajadan oshmasligi; va

b) Oziq-ovqat qo‘shimchasi o‘tgan mahsulot tarkibidagi qo‘shimcha miqdori, Oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘yicha umumiy standartning (CXS 192-1995) [1] muqaddimasidagi o‘tish (carry-over) qoidalariga muvofiq, tegishli ishlab chiqarish amaliyotiga (good manufacturing practice) asosan xomashyo yoki ingredientlardan o‘tishi mumkin bo‘lgan miqdordan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

5 Ifloslantiruvchi moddalar (kontaminantlar)

Ushbu standart qamrab oladigan mahsulotlar Oziq-ovqat va ozuqalardagi ifloslantiruvchi moddalar hamda toksinlarning umumiy standarti (CXS 193-1995)5 da belgilangan eng yuqori ruxsat etilgan me’yorlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Ushbu standart qamrab oladigan mahsulotlar Kodeks Alimentarius Komissiyasi (Codex Alimentarius Commission) tomonidan belgilangan pestitsidlarning qoldiqlari bo‘yicha eng yuqori cheklangan me’yorlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

6 Gigiena

6.1 Ushbu standart qoidalari qamrab oladigan mahsulotlarni Oziq-ovqat gigienasining umumiy prinsiplari (CXC 1-1969)[6] ning tegishli bo‘limlariga hamda Kodeksning boshqa tegishli matnlariga, chunonchi Go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan kukunsimon aralashmalar uchun gigiena amaliyoti kodeksi (CXC 66-2008)[7] ga muvofiq tayyorlash va ular bilan ishlash tavsiya etiladi. Sanoat usulida sterillangan suyuq aralashmalar holatida esa, zaruratga ko‘ra, Aseptik usulda qayta ishlangan va qadoqlangan kam kislotali oziq-ovqat mahsulotlari uchun gigiena amaliyoti kodeksi (CXC 40-1993)[8] hamda Kam kislotali va nordonlashtirilgan kam kislotali konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari uchun gigiena amaliyoti kodeksi (CXC 23-1979)[9] ning tegishli bo‘limlari ham inobatga olinishi lozim.

6.2 Mahsulotlar oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan mikrobiologik mezonlarni belgilash va qo‘llash prinsiplari hamda uslubiy ko‘rsatmalari (CXC 21-1997)[10] ga muvofiq belgilangan har qanday mikrobiologik mezonlarga muvofiq bo‘lishi lozim.

7 Idishlarni to‘ldirish

Iste’molga tayyor holatdagi mahsulotlar uchun idishlarning to‘ldirilishi quyidagi miqdordan kam bo‘lmasligi lozim:

(i) og‘irligi 150 g dan kam bo‘lgan mahsulotlar uchun idishning suv sig‘imiga nisbatan 80 foiz;

(ii) og‘irligi 150 g dan 250 g gacha bo‘lgan mahsulotlar uchun idishning suv sig‘imiga nisbatan 85 foiz; va

(iii) og‘irligi 250 g dan ortiq bo‘lgan mahsulotlar uchun idishning suv sig‘imiga nisbatan 90 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda.

Idishning suv sig‘imi deganda, to‘liq to‘ldirilgan zich yopilgan (germetik) idish ichiga sig‘adigan 20 °C haroratdagi distillangan suvning hajmi tushuniladi.

8 Tamg‘alash

Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg’alash bo‘yicha umumiy standart (CXS 1-1985)[11], Oziq-ovqat qiymatini tamg’alash bo‘yicha qo‘llanma (CXG 2-1985)[12] hamda Oziq-ovqat qiymati va sog‘liqqa oid da’volardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma (CXG 23-1997)[13] talablari 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotga nisbatan tatbiq etiladi. Ushbu

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

talablar tegishli Kodeks standartlarida yoki milliy qonunchilikda alohida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan oziq-ovqat qiymati va sog‘liqqa oid da’volardan foydalanishni taqiqlashni o‘z ichiga oladi.

8.1 Mahsulotning nomi

8.1.1 Tamg‘alash matni va mahsulotga ilova qilinadigan barcha boshqa ma’lumotlar tegishli til(lar)da yozilishi lozim.

8.1.2 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotning nomi milliy yoki mintaqaviy amaliyotga muvofiq “Ozuqa moddalari qo‘shilgan yosh bolalar uchun ichimlik” yoki “Ozuqa moddalari qo‘shilgan yosh bolalar uchun mahsulot” yoki “Yosh bolalar uchun ichimlik“ yoki “Yosh bolalar uchun mahsulot”, yoxud mahsulotning asl xususiyatini ko‘rsatuvchi har qanday boshqa muvofiq nom bo‘lishi kerak.

8.1.3 Mahsulot tarkibidagi oqsil manbalari yorliqda aniq ko‘rsatilishi kerak.

a) Agar [hayvon nomi] suti oqsilning yagona manbai bo‘lsa, mahsulot “Ozuqaviy qo‘shimchalar kiritilgan [hayvon nomi] sut oqsili asosidagi yosh bolalar uchun ichimlik” yoki “Ozuqaviy qo‘shimchalar kiritilgan [hayvon nomi] sut oqsili asosidagi yosh bolalar uchun mahsulot” yoxud “[hayvon nomi] sut oqsili asosidagi yosh bolalar uchun ichimlik” yoki “[hayvon nomi] sut oqsili asosidagi yosh bolalar uchun mahsulot” deb tamg‘alanishi mumkin.*

b) Agar [o‘simlik nomi] oqsilning yagona manbai bo‘lsa, mahsulot “Ozuqaviy qo‘shimchalar kiritilgan [o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun ichimlik” yoki “Ozuqaviy qo‘shimchalar kiritilgan [o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun mahsulot” yoxud “[o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun ichimlik” yoki “[o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun mahsulot” deb tamg‘alanishi mumkin.*

c) Agar [hayvon nomi] suti va [o‘simlik nomi] oqsil manbalari bo‘lsa, mahsulot “Ozuqaviy qo‘shimchalar kiritilgan [hayvon nomi] sut oqsili va [o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun ichimlik” yoki “Ozuqaviy qo‘shimchalar kiritilgan [hayvon nomi] sut oqsili va [o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun mahsulot” yoxud “[hayvon nomi] sut oqsili va [o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun ichimlik” yoki “[hayvon nomi] sut oqsili va [o‘simlik nomi] oqsili asosidagi yosh bolalar uchun mahsulot” deb tamg‘alanishi mumkin.*

* Aniq bo‘lishi uchun qayd etamizki, oqsil sifatini yaxshilash maqsadida zarur bo‘lgan hollarda ayrim aminokislotalarning qo‘shilishi yuqorida keltirilgan tamg‘alash usullaridan foydalanishni istisno etmaydi.

8.1.4 Tarkibida sut ham, sut mahsulotlari ham bo‘lmagan mahsulot “tarkibida sut yoki sut mahsulotlari mavjud emas” deb yoki shunga teng ma’noli ibora bilan tamg’alanishi kerak.

8.2 Ingrediyentlar ro‘yxati

8.2.1 Tarkibiy qismlarning to‘liq ro‘yxati yorliqda ularning nisbati bo‘yicha kamayish tartibida ko‘rsatilishi kerak, biroq qo‘shilgan vitaminlar va minerallar bundan mustasno. Ushbu ingredientlar vitaminlar va minerallar uchun alohida guruhlar sifatida joylashtirilishi mumkin. Ushbu guruhlar ichida vitaminlar va minerallarni nisbat bo‘yicha kamayish tartibida ko‘rsatish talab etilmaydi.

8.2.2 Hayvon yoki o‘simlik kelib chiqishiga ega bo‘lgan tarkibiy qismlar va oziq-ovqat qo‘shimchalari uchun maxsus (aniq) nom ko‘rsatilishi kerak. Bundan tashqari, yorliqda oziq-ovqat qo‘shimchalarining tegishli funksional sinflari ham kiritilishi kerak. Oziq-ovqat qo‘shimchalarining INS raqami ham ixtiyoriy ravishda ko‘rsatilishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

8.3 Ozuqaviy qiymat to‘g‘risida ma’lumot

2.1-bandda ta’riflangan mahsulot uchun ozuqaviy qiymat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni deklaratsiyalash quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi va ularni quyidagi tartibda joylashtirishi kerak:

a) energiya qiymati (kilokaloriya (kcal) va/yoki kilojoul (kJ) bilan ifodalangan), shuningdek, mahsulotning sotilayotgan holatidagi 100 g yoki 100 ml mahsulot uchun hamda yorliqdagi ko‘rsatmalarga muvofiq tayyorlangan holatidagi 100 ml mahsulot uchun oqsil, uglevod va yog‘larning grammdagi miqdori;

b) B-bo‘limining 3.1.3-bandida sanab o‘tilgan har bir vitamin va mineralning umumiy miqdori hamda B-bo‘limining 3.2-bandida sanab o‘tilgan har qanday boshqa tarkibiy qismning miqdori – mahsulotning sotilayotgan holatidagi 100 g yoki 100 ml mahsulot uchun, shuningdek, yorliqdagi ko‘rsatmalarga muvofiq tayyorlangan holatidagi 100 ml mahsulot uchun; va

c) bundan tashqari, a) va b)-bandlarda ko‘rsatilgan ozuqa moddalarini 100 kcal yoki 100 kJ hisobida va/yoki bir porsiya miqdoriga nisbatan ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi, bunda porsiya miqdori yorliqda miqdoriy jihatdan ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

8.4 Sanasini ko‘rsatish va saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar

8.4.1 Sanasini ko‘rsatish va saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar “Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart”ning (CXS 1-1985) 4.7-bo‘limiga muvofiq bo‘lishi lozim.

8.4.2 Texnik jihatdan imkon qadar, saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar sanasi ko‘rsatilgan joyga bevosita yaqin (yonma-yon) joylashtirilishi lozim.

8.5 Foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar

8.5.1 Suyuq holatdagi, iste’molga tayyor mahsulotlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanilishi lozim. Konsentrlangan suyuq mahsulotlar va kukunsimon mahsulotlar, foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmaga muvofiq, bolani ovqatlantirishdan oldin ichishga yaroqli (iste’molbop) bo‘lgan xavfsiz suvda yoki oldindan qaynatish orqali xavfsiz holatga keltirilgan suvda tayyorlanishi kerak. Mahsulotni tayyorlash va u bilan ishlash bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar gigiyena qoidalariga (good hygienic practice) muvofiq bo‘lishi lozim.

8.5.2 Yorliqda mahsulotni to‘g‘ri tayyorlash va undan foydalanish, shu jumladan, uni tayyorlagandan keyin saqlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar, ya’ni bolani ovqatlantirishdan keyin ortib qolgan mahsulot tashlab yuborilishi (yo‘q qilinishi) lozimligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak.

8.5.3 Yorliqda mahsulotni tayyorlash usulini aniq tushuntiruvchi yaqqol grafik ko‘rsatmalar (tasvirlar/piktogrammalar) bo‘lishi kerak.

8.5.4 Ko‘rsatmalarda mahsulotni noto‘g‘ri tayyorlash, saqlash va undan foydalanishning sog‘liq uchun xavfli oqibatlari (zarari) to‘g‘risidagi ogohlantirish bo‘lishi lozim.

8.5.5 Yorliqda idish (qadoq) ochilgandan keyin mahsulotni saqlash tartibiga oid tegishli ko‘rsatmalar bo‘lishi lozim.

8.5.6 Katta yoshdagi go‘daklar uchun keyingi davomiy aralashma yorlig‘ida mahsulotni bolaning 6 oylik yoshidan oldin berish (ratsionga kiritish) mumkin emasligi, u yagona oziqlanish manbasi sifatida qo‘llanilmasligi hamda katta yoshdagi go‘daklar ushbu mahsulotga qo‘shimcha ravishda qo‘shimcha ovqatlar (ko‘makchi oziq-ovqatlar) olishi kerakligi to‘g‘risidagi ko‘rsatma (ogohlantirish matni) bo‘lishi lozim.

8.5.6 2.1-bandda ta’riflangan mahsulot yorlig‘ida mahsulot 12 oylik yoki undan kichik yoshdagi go’daklarga berilmasligi va u yagona ozuqa manbai sifatida foydalanilmasligi to‘g‘risida ogohlantirish bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

8.6 Qo‘shimcha tamg‘alash talablari

8.6.1 2.1-bandda ta’riflangan mahsulot yorlig‘ida emizishni qadrsizlantirishi yoki undan qaytarishi mumkin bo‘lgan yoxud 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotdan foydalanishni ideallashtiruvchi har qanday tasvir, matn yoki ifoda, shu jumladan, oziqlantirish shishalari (butilkalar) tasviri bo‘lmasligi kerak. Yorliqda “inson sutiga moslashtirilgan”, "ona sutiga yaqinlashtirilgan " yoki shunga o‘xshash boshqa atamalar qo‘llanilmasligi kerak.

8.6.2 Tamg‘alash emizishni amalga oshirishdan qaytarmasligi kerak. Har bir idish yorlig‘ida quyidagi bandlarni o‘z ichiga olgan aniq, ko‘zga tashlanadigan va oson o‘qiladigan xabar bo‘lishi kerak:

a) “emizish ikki yoshgacha va undan keyin ham tavsiya etiladi” degan yozuv; va

b) ona/parvarish qiluvchi shaxs yosh bolani to‘g‘ri oziqlantirish bo‘yicha tibbiyot xodimining maslahatini olishi kerakligi haqidagi bayonot.

8.6.3 Yorliqda go‘daklar, kattaroq yoshdagi go‘daklar, yosh bolalar va ayollarning rasmlari yoki quyidagilarni ifodalovchi har qanday boshqa rasm, matn yoxud tasvir bo‘lmasligi kerak:

8.6.3.1 emizishni qadrsizlantiruvchi yoki uni amalga oshirishdan qaytaruvchi; yoxud ona suti bilan taqqoslovchi yoki mahsulot ona sutiga o‘xshash, teng yoki undan ustun ekanligini bildiruvchi;

8.6.3.2 tegishli milliy yoki mintaqaviy tartibga soluvchi organlar tomonidan maxsus tasdiqlanmagan bo‘lsa, mutaxassis yoki boshqa har qanday organ tomonidan ma’qullanganligini ifodalovchi yoxud ma’qullash deb baholanishi mumkin bo‘lgan har qanday ma’lumot.

8.6.4 2.1-bandda ta’riflangan mahsulot iste’molchilarda go‘daklar uchun aralashmalar, kichik yoshdagi bolalar uchun keyingi bosqich aralashmalari va go‘daklar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi aralashmalar bilan adashib ketish xavfini oldini oladigan tarzda, xususan, foydalanilgan matn, tasvir va ranglar nuqtai nazaridan, ularni aniq farqlash imkonini beradigan tarzda alohida markalanishi kerak.

8.6.5 2.1-bandda ta’riflangan mahsulotning tamg’alanishida go‘daklar uchun aralashmalar, kichik yoshdagi bolalar uchun keyingi bosqich aralashmalari yoki go‘daklar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi aralashmalarga, shu jumladan, ushbu mahsulotlarning raqamlari, matnlari, bayonotlari yoki tasvirlariga havolalar keltirilmasligi kerak.

9 Tahlil va namuna olish usullari

Ushbu standart talablariga muvofiqlikni tekshirish (nazorat qilish) uchun Tahlil va namuna olish bo‘yicha tavsiya etilgan usullar (CXS 234-1999) [14] standartining mazkur standart qoidalariga daxldor bo‘lgan qismidagi tahlil usullaridan foydalanilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izohlar

1 FAO and WHO. 1995. *General Standard for Food Additives.* Codex Alimentarius Standard, No. CXS 192-1995. Codex Alimentarius Commission. Rome.

2 World Health Organization (WHO). 1981. *International Code of Marketing of Breast-Milk Substitutes*. https://www.who.int/publications/i/item/9241541601

3 FAO and WHO. 1981. *Standard for Infant Formula and Formulas for Special Medical Purposes Intended for Infants*. Codex Alimentarius Standard, No. CXS 72-1981. Codex Alimentarius Commission. Rome.

4 FAO and WHO. 1979. *Advisory Lists of Nutrient Compounds for Use in Foods for Special Dietary Uses intended for Infants and Young Children*. Codex Alimentarius Guideline, No. CXG 10-1979. Codex Alimentarius Commission. Rome.

5 FAO and WHO. 1995. *General Standard for Contaminants and Toxins in Food and Feed*. Codex Alimentarius Standard, No. CXS 193-1995. Codex Alimentarius Commission. Rome.

6 FAO and WHO. 1969. *General Principles of Food Hygiene.* Codex Alimentarius Code of Practice, No. CXC 1-1969. Codex Alimentarius Commission. Rome.

7 FAO and WHO. 2008. *Code of Hygienic Practice for Powdered Formulae for Infants and Young Children.* Codex Alimentarius Code of Practice, No. CXC 66-2008. Codex Alimentarius Commission. Rome.

8 FAO and WHO. 1993. *Code of Hygienic Practice for Aseptically Processed and Packaged Low-acid Foods.* Codex Alimentarius Code of Practice, No. CXC 40-1993. Codex Alimentarius Commission. Rome.

9 FAO and WHO. 1979. *Code of Hygienic Practice for Low and Acidified Low-acid Canned Foods.* Codex Alimentarius Code of Practice, No. CXC 23-1979. Codex Alimentarius Commission. Rome.

10 FAO and WHO. 1997. *Principles and Guidelines for the Establishment and Application of Microbiological Criteria Related to Foods.* Codex Alimentarius Guideline, No. CXG 21-1997. Codex Alimentarius Commission. Rome.

11 FAO and WHO. 1985. *General Standard for the Labelling of Pre-packaged Foods*. Codex Alimentarius Standard, No. CXS 1-1985 Codex Alimentarius Commission. Rome.

12 FAO and WHO. 1985. *Guidelines on Nutrition Labelling*. Codex Alimentarius Guideline No. CXG 2-1985. Codex Alimentarius Commission. Rome.

13 FAO and WHO. 1997. *Guidelines for Use of Nutrition and Health Claims*. Codex Alimentarius Guideline, No. CXG 23-1997. Codex Alimentarius Commission. Rome.

14 14 FAO and WHO. 1999. *Recommended Methods of Analysis and Sampling*. Codex Alimentarius Standard, No. CXS 234-1999. Codex Alimentarius Commission. Rome.

15 FAO and WHO. 2008. *Guidelines for the Use of Flavourings*. Codex Alimentarius Guideline, No. CXG 66-2008. Codex Alimentarius Commission. Rome.

STANDARTLAR INSTITUTI #DIQU9FZPU5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI